ALISHER NAVOIY LIRIKASINING TADQIQ VA TALQINIDAGI O‘ZIGA XOSLIK

Xusanova Mohim Muzaffar qizi

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Najmiddin Komilovning Alisher Navoiy ijodini, xususan, shoir lirikasini talqin etishdagi ilmiy-nazariy va metodologik qarashlari tahlil qilindi. Olimning navoiyshunoslikdagi ilmiy qarashlari tasavvufiy-estetik tafakkurni anglash hamda mumtoz she’riyatning ma’no qatlamlarini chuqur o‘rganishda muhim metodologik ahamiyatga ega ekani ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, Najmiddin Komilov, navoiyshunoslik, germenevtika, tasavvuf, tasavvufiy talqin, g‘azal, ramz, timsol, majoz, haqiqat, ilohiy muhabbat, dunyoviy muhabbat, poetik tafakkur, badiiy matn.*

Аннотация. *В статье анализируются научно-теоретические и методологические взгляды Наджмиддина Камилова на интерпретацию творчества Алишера Навои, в частности его лирического наследия. Обосновывается, что научные исследования Наджмиддина Камилова имеют важное значение для изучения суфийско-эстетического мышления и глубокого осмысления смысловых уровней классической восточной поэзии.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, Наджмиддин Камилов, навоиведение, герменевтика, суфизм, суфийская интерпретация, газель, символ, образ, метафора, истина, божественная любовь, земная любовь, поэтическое мышление, художественный текст.*

Abstract. *This article analyzes the scholarly, theoretical, and methodological approaches of Najmiddin Komilov to the interpretation of Alisher Navoi’s literary heritage, particularly his lyric poetry. The study demonstrates that Najmiddin Komilov’s scholarly views provide an important methodological foundation for understanding Sufi-aesthetic thought and for a deeper interpretation of the semantic layers of classical Eastern poetry. His approach also reveals the close relationship between Navoi’s artistic mastery, philosophical worldview, and humanistic conception.*

Keywords: *Alisher Navoi, Najmiddin Komilov, Navoi studies, hermeneutics, Sufism, Sufi interpretation, ghazal, symbol, poetic image, metaphor, truth, divine love, worldly love, poetic thinking, literary text.*

KIRISH

Alisher Navoiy ijodiy merosi o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak cho‘qqilaridan biri sifatida asrlar davomida adabiyotshunoslik, falsafa, tasavvufshunoslik ilmining muhim obyekti bo‘lib kelmoqda. Shoir asarlarining mazmun va mohiyati, badiiy-estetik xususiyatlari, tasavvufiy-falsafiy qarashlari hamda insonparvarlik g‘oyalari turli davrlarda turlicha ilmiy-metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ayniqsa, Navoiy lirikasini faqat zohiriy mazmun doirasida emas, balki uning botiniy, falsafiy va irfoniy qatlamlari bilan bog‘liq holda o‘rganish shoir ijodining asl mohiyatini anglashda alohida ahamiyat kasb etadi.

XX–XXI asr o‘zbek navoiyshunosligida Alisher Navoiy ijodini tasavvuf ta’limoti, Sharq falsafasi va insonning ma’naviy-axloqiy kamoloti bilan bog‘liq holda tadqiq etishda Najmiddin Komilovning ilmiy faoliyati alohida o‘rin tutadi.

ASOSIY QISM

Najmiddin Komilov ham Navoiy lirikasining mag‘zini chaqish uchun kichik elementlarni ham bee’tibor qoldirib bo‘lmasligini, mutafakkir ijodini yuzaki talqin va tahlil porlab turgan quyosh nuri xiralashishiga olib kelishini yaxshi anglagan. Shayx Aziziddin Nasafiy: “Odamzod ham safardadir, u o‘z mohiyatiga erishmaguncha tinmay harakat qiladi [5: 56]”, deya ta’kidlagan edi “Zubdat ul-haqoyiq” asarida. Najmiddin Komilov ham tasavvuf mag‘zini chaqish, tasavvuf orqali Navoiyni anglash, Navoiy ijodi bilan insonlik mohiyatini tushunish uchun “ma’nolar olamiga safar” ga chiqqan olim. “Ma’nolar olamiga safar” – Navoiyning so‘z san’ati san’at darajasida tahlil qilingan kitob. Bu kitobda Navoiyning so‘z mulkida sulton ekanligi ellik g‘azal sharhi asosida ochib berilgan desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Navoiy lirikasidagi falsafaga, tashbeh-u timsollarga nuktadon olim qalb ko‘zi bilan nigoh tashlaydi. O‘quvchini har bir misra, har bir so‘zdagi hikmat-la bezatilgan sayqal va jilolarga oshno qilmay qo‘ymaydi.

San’atkor – so‘z shaydosi, so‘z sehridan zavq oluvchi fidoyi. So‘z imkoniyatlaridan huzur qilish, so‘zga e’tiqod, so‘zni yuksak qadrlash turli millat, har xil din namoyandalarini o‘zaro yaqinlashtirgan. So‘zga e’tiqod, san’atga shaydolik turli makon, zamonda yashagan san’atkorlarni ruhan qardosh, qadrdonga aylantiradi [3: 296]. Navoiy ijodiyotining, Navoiy ash’orining oshig‘i bo‘lgan olim mutafakkir so‘zining qadrsizlanishiga jim qarab turmaydi. “Ma’nolar olamiga safar” kitobining dastlabki sahifalari ham olimning Navoiy g‘azallaridagi so‘zlarning noto‘g‘ri talaffuz qilinishi natijasida, umuman boshqa ma’no kasb etayotganini ko‘rsatib beradi. Olim ko‘pgina xonandalar Navoiy so‘zlari bilan kuylangan maqomlardagi xatoliklardan shikoyat qiladi: “G‘azal – bu musiqa, shu bois undagi so‘z va iboralar ham nozik, nafis, dilrabo. Bitta so‘zgina emas, bitta tovush yoki qo‘shimcha noto‘g‘ri talaffuz etilsa, ohangiga tushmasa, butun asarning ohori to‘kiladi, g‘alizlik va dag‘allik yuz beradi. G‘azal, ayniqsa, Alisher

Navoiy g‘azallari g‘oyat san’atkorona tikilgan harir matoga o‘xshaydi, undagi ayni shu nafislik, kuy maromini ozgina buzsangiz, so‘zni belgilangan bahr talabiga rioya qilmasdan talaffuz etsangiz, harir mato chok-chokidan sitilib ketadi [1: 4]”. Buning ortidan olim yana bir muammoni ko‘tarib chiqadi, ya’ni san’at maktabi, kolleji, oliygohlarida aruz, aruziy talaffuz me’yorlarini o‘rgatish bo‘yicha darslar tashkil qilinmaganligi masalasiga e’tibor qaratadi. Olimning bu kitobiga yozgan muqaddimasidan murod shuki, adabiyot ixlosmandimi yoki san’atkor, kim bo‘lishidan qat’iy nazar, mumtoz lirikani anglash, undan ruhiy lazzat topishi uchun she’rlarning har birini vazni-ohangida o‘qish zarurligini uqtirish bo‘lgan.

Hazrat Navoiy:

Haq sirrini har kimga bayon etma Navoiy,
Ta’n aylamagay bilmas ulus anglasa nogah.

deya Haqning asrorini har kimga ham ochib bo‘lmasligi, haqiqatni har kim ham idrok eta olmasligi, ular tafakkur darajasi yetib bora olmagan ilmni inkor etishlari mumkinligi haqida ta’kidlaydi. Shuni aytish joziki, Iloh sirrini anglagan ijodkor sirini anglash ham har kim uchun emasligini Najmiddin Komilov o‘z tadqiqotlarida isbotladi. Navoiy g‘azallarini mukammal – butunlikda, ya’ni ularni zohiran dunyoviy va botinan falsafiy-ma’rifiy qarashlar silsilasiga borib tutashadigan ma’nolar aloqadorligida – “timsollar timsoli”da talqin etish usulini Najmiddin Komilov boshlab berdi. Bu adabiyotimiz tarixini, klassik she’riyatimizni o‘rganishda muhim hodisa bo‘ldi [4: 7].

Olim g‘azallarni sharhlaganda quyidagicha usuldan foydalangan, ya’ni dastlab tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar lug‘atini berish, so‘ngra baytlarning nasriy bayonini taqdim etish, oxirida g‘azal mazmun-mohiyatini anglash uchun chuqurroq tahlil qilish yo‘lidan boradi. Bu usul har jihatdan o‘quvchiga g‘azal mohiyatini ochib berish uchun yaxshi yordam beradi. G‘azal ma’nosi keng, siqiq bir dunyo. Talqinchi bu dunyodagi har bir belgi nuqtaga sinchiklab nazar solsagina ma’nolar olamini qamrab oladi [3: 116]. Navoiy g‘azallarining har bir misrasi shunchalik puxtaki, quduq qazigan misoli suv izlab yer qatlamlaridan birma-bir pastga tushaveradi kishi. Najmiddin Komilovning talqinlarida ham sinchikovlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Najmiddin Komilov “Ma’nolar olamiga safar” kitobini “Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo” deb boshlanuvchi g‘azalni tahlilga tortishdan boshlaydi. E’tiborlisi, “Xazoyin ul-maoniy” lirik she’rlar to‘plami ham mana shu g‘azaldan boshlangann. Olim aynan shu g‘azal boshqa g‘azallar uchun ma’lum ma’noda dasturiy xususiyatga egaligi, bu g‘azalda mutafakkir sarhadsiz tafakkur olamining asosiy yo‘nalishi aks etganiligi uchun ham boshqa g‘azallarni sharhlashga kirish oldidan bir kalit vositasini bajarishini tushungan. Olim Alisher Navoiyning bu g‘azalida ilgar surilgan Ilohiy tajalliy bilan moddiy olam insonda birlashgan degan vahdat ul-vujud nazariyasini may bilan jom orqali tahlil qiladi:

“…may bilan jom orasida shunday bir Yagonalik hosil bo‘ladiki, qaysi dunyo, qaysi Iloh ekanligini ajratish mumkin bo‘lmay qoladi [1: 16]”.

Alisher Navoiy g‘azallari go‘yo talqinistondir. Navoiy ko‘plab g‘azallarida Qur’on oyatlari-yu hadislarni nafis, badiiy talqin etadi. Shunday g‘azallaridan biri “Ey, safhayi ruxsoring azal xattidin insho‘…” deb boshlanuvchi g‘azalidir. Olim bu g‘azalni hamd g‘azallar ichidagi munojot ohangiga yo‘g‘rilgan g‘azallar sirasiga kiritadi. Bu g‘azalning uchinchi baytiga e’tiborimizni qaratsak:

Mashshotayi sun’ungdurur ulkim, nafas ichra
Kun ko‘zgusin aqshom kulidin qildi mujallo.

Olim bu baytning sharhida tasavvufda ko‘p uchraydigan nomutanosibliklar mutanosibligi bo‘lmish tun-u kunga qauyidagicha ta‘rif beradi: “Ulug‘ shoir Xudo qudratini toza, qalbga ta’sir etadigan tashbeh – tamsillar vositasida ta’rif etadi. Chunonchi, mashshota (yuzni pardozlovchi) san’atkorligi kunduz ko‘zgusini kecha kuli bilan tozalab, jilolantirdi, deyish bilan kecha (tun)ni kunduzsiz , kunni tunsiz tasavvur qilish qiyin, zero Parvardigor o‘zaro zidlikni bir-biriga bog‘liq qilib yaratgan”. Tasavvuf she’riyatida tun-kun, xilvat va anjuman, fano va baqo, ruh va tan kabi tushunchalar bir-birisiz butun bo‘lolmaydigan Ilohiy hikmatlardir.

XULOSA

Najmiddin Komilovning Navoiy g‘azallariga bag‘ishlangan sharhlarini jamlasak, tasavvufdagi ramziy obrazlar lug‘ati paydo bo‘ladi. Har bir g‘azal tahlilida mayda belgilargacha e’tibor bergan olim, ijodkor qo‘llagan har bir timsol zamirida qanday ma’no yashiringanini daqiq fikrlar bilan izohlaydi. Masalan, sun me’mori – Xudo, mayxona devori – piri komilning muhiti, zohiriy dunyosi; mosivo – moddiy borliq, dunyo; ayn – chashma, ko‘z, har narsaning asli, zot; yuz – ilohiy go‘zallik mazhari; gulshan – pir yoki komil inson so‘zi; ko‘ngul ravzasi – oshiqning yorga intizor qalbi; soch – mavjud dunyo ramzi; suv – ter soflik, piri komil qalbining musaffoligi kabi. Bunday namunalarni yuzlab keltirsak bo‘ladi. Tadqiqotchi Navoiy g‘azaliyotini faqat tasavvufiy, ma’rifiy jihatdan emas, balki leksikografik, lingvistik, etimologik jihatdan ham tahlil qilarkan, bu tahlillar har bir navoiyshunos uchun esa shoir ijodini yanada teran mushohada etish imkonini beradi.

Tasavvuf Navoiy va uni chuqur anglagan kishilar uchun inson tabiati va tiynati, jamiyat va hayotdagi voqea-hodisalarni tushunish, ularning mazmuni va mohiyatini o‘rganish uchun izlanish va tafakkur maydoni sifatida xizmat qilgan. Negaki tasavvuf insonni o‘z vijdoni bilan yuzlashtirib, o‘zi haqida o‘ylashga majbur etar, haqiqat va e’tiqod pokligi ruhida tarbiyalardi. Najmiddin Komilov ham Navoiyni teran anglaganlar ahlidan edi, shuning uchun ham gumanist mutafakkir ijodini odamiylik konsepsiyasi sifatida qabul qilgan desak adashmaymiz. Najmiddin Komilov qaysi mavzuda Navoiy

tafakkurining sathi kengliklarini zabt etishga urinmasin, barcha talqinlar-u tahlillarida ikki xil yondashuvni kuzatish mumkin, ya’ni birinchidan, Navoiy badiiyati go‘zal ifodalarni ochib beradi, ikkinchidan, Navoiy ko‘targan masalalar hozirgi ijtimoiy hayotda ham naqadar ahamiyatli ekanini ko‘rsatib beradi. Alisher Navoiy nafosati ila qalblarga huzur bag‘ishlagan holda har bir so‘zida, har misrasida “oliy uyg‘unlik, oliy san’atkorlik, oliy tuyg‘ular” har o‘quvchi uchun ma’naviy yuksalish manbayidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Комилов Н.** Маънолар оламига сафар. — Тошкент: Тамаддун, 2012.
2. **Расулов А.** Бетакрор ўзлик. — Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.
3. **Расулов А.** Танқид, таҳлил ва баҳолаш. — Тошкент: Фан, 2006.
4. **“Tasavvuf adabiyotining o‘rganilishi va tarjimashunoslik muammolari”:** Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. — Toshkent: Muharrir, 2018.
5. **Шайх Азизиддин Насафий.** Зубдат ул-ҳақойиқ / **Н. Комилов** таржимаси. — Тошкент: Камалак, 1999.